



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- YIL YANVAR-MART


NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1-aprel holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 258 tani tashkil etdi.



Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 384 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 30,5 % i Navoiy shahrida joylashgan.

2024- yil 1-aprel holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Hududlar kesimida




Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 211 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 16,8 %), Qiziltepa tumanida – 188 ta (14,4 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-mart oylari uchun)

2024- yilning yanvar-mart oylarida, Navoiy viloyatida jami 1 369,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: Qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 75,3 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 20,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 4,4 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,4 % i yoki 1 046,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 234,1 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 22,4 % ni tashkil etdi.

22,4 %

234,1
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 449,7 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.

43,0 %

449,7
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 362,6 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,7 % ni tashkil etdi.

34,6 %

362,6
mlrd. so‘m



2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Qiziltepa tumani (290,0 mlrd. so'm), Navoiy shahri (219,7 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (194,1 mlrd. so'm) va Nurota tumani (176,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	1 369,1	111,6	1 046,4
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	219,7	108,1	183,7
Zarafshon	194,1	108,9	159,8
G'ozg'on	1,5	102,2	1,0
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	28,2	114,4	10,5
Qiziltepa	290,0	114,9	248,0
Navbahor	102,2	120,7	62,7
Karmana	130,0	109,5	87,2
Nurota	176,5	105,6	139,6
Tomdi	74,8	119,3	58,7
Uchquduq	33,1	128,7	12,5
Xatirchi	119,0	109,8	82,7




Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

2024- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **1 031,2 mlrd. so'm.**




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 19,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,7 % punktga kamayib, 42,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % punktga ko'payib, 38,1 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun:

Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Xatirchi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 92,5 %) Qiziltepa tumani (83,8 %) va Konimex tumani (82,4 %) da kuzatildi.



Xatirchi tumani
92,5 %




Qiziltepa tumani
83,8 %



Konimex tumani
82,4 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish- **277,3** mlrd. so'm.




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 45,0 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 25,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 55,0 % (25,6 % punktga kamaydi).

2024- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Tomdi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 39,3 % i), Karmana tumani (30,6 %) va Uchquduq tumani (30,0 %) da kuzatildi.



39,3 %
Tomdi tumani




30,6 %
Karmana tumani



30,0 %
Uchquduq tumani

2024- yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- **60,6 mlrd. so'm.**



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,3 % punktga kamayib va 0,8 % ni tashkil etdi.

Qolgan 99,2 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,3 % punktga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Maʼlumot uchun:
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Karmana tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 12,2 % i), Uchquduq tumani (8,2 %) va Zarafshon shaharida (5,8 %) kuzatildi.



12,2 %
Karmana tumani



8,2 %
Uchquduq tumani



5,8 %
Zarafshon shahar


2024- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
155,5 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
105,6 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
96,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 326,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 155,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 6,3 % punktga ko'payib, 23,8 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Hududlar kesimida mlrd. so'mda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,5 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ni tashkil etgan holda 649,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Hududlar kesimida jamida ulishi % da




2024- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 28,7 % ni yoki 392,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,6 % ni tashkil etdi. Shundan 251,4 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 111,3 mlrd. soʻmni va 79,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 30,2 mlrd. soʻmni va 106,1 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-mart oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 150,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 218,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 11,0 % va 89,0 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun:



Nodavlat mulkchilikidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush G'ozg'on shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 100 % i), Navbahor tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 95,3 % i) va Xatirchi tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 90,1 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. (79) 223-54-73